



TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT VA KREDIT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

PhD Melikov Otabek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0006-1518-4107

o.melikov@dtpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining depozit bazasining yetarliligi, unga ta'sir etuvchi omillar, bank depozitlari va kreditlarining muddatlari, foizlari va hajmi bo'yicha mutanosiblikning ta'minlanishi va depozitlar va kreditlarning o'sish tendensiyalari tahlil qilingan. Bank depozitlari va kreditlarining transformatsiya riskining vujudga kelish sabablari o'rganilgan. Bundan tashqari bank kredit xizmatlaridagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: depozit, kredit, transformatsiya riski, defolt riski, depozit bazasining barqarorligi, kredit portfeli, kredit siyosati.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕПОЗИТНО-КРЕДИТНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

PhD Меликов Отабек

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. В данной статье анализируются достаточность депозитной базы коммерческих банков, факторы, влияющие на нее, обеспечение соответствия сроков, процентных ставок и объемов банковских депозитов и кредитов, а также тенденции роста депозитов и кредитов. Исследованы причины возникновения риска трансформации банковских депозитов и кредитов. Кроме того, разработаны практические предложения и рекомендации по существующим проблемам в банковских кредитных услугах и их устранению.

Ключевые слова: депозит, кредит, риск трансформации, риск дефолта, стабильность депозитной базы, кредитный портфель, кредитная политика.

ISSUES OF IMPROVING DEPOSIT AND CREDIT SERVICES OF COMMERCIAL BANKS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

PhD Melikov Otabek

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article analyzes the adequacy of commercial banks' deposit base, the factors affecting it, the alignment of maturities, interest rates, and volumes between bank deposits and loans, as well as the growth trends of deposits and loans. The causes of the transformation risk associated with bank deposits and credits have been examined. Furthermore, practical proposals and recommendations have been developed regarding existing problems in bank credit services and their solutions.

Keywords: deposit, credit, transformation risk, default risk, stability of the deposit base, loan portfolio, credit policy.

Kirish.

Tijorat banklarining asosiy passiv operatsiyalaridan biri bo'lib depozitlar hisoblansa, aktiv operatsiyalaridan biri bo'lib kredit operatsiyalari hisoblanadi. Aktiv va passivlarni samarali boshqarish orqali bank likvidligi hamda rentabiligi optimal darajadagi mutanosibligi ta'minlanadi.

Mamlakatimiz bank tizimini yanada rivojlantirishda banklarning muddatli va jamg'arma depozit hisob raqamlarini jozibadorligini oshirish, tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini ta'minlash, depozitlar va kreditlarning transformatsiya riskini minimallashtirish, banklarning depozit-kredit xizmatlarini innovatsiyalar asosida takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini baholash va boshqarish amaliyotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Sinking (2007) fikricha, banklarning asosiy faoliyati kreditlarni depozitlar orqali moliyalashtirishdan iborat. Biroq, agar ilgari banklar faqat moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida vositachilar sifatida qaralgan bo'lsa, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ularni axborot ishlab chiqarish va operatsiyalarni ta'minlash bilan shug'ullanadigan korxonalar, deb hisoblash mumkin.

Mishkinning (2006) fikricha, aynan banklar va boshqa moliya institutlarining faoliyati moliya bozorlarining ishlashini ta'minlaydi, ularsiz mablag'larni bo'sh resurslardan samarali foydalana oladiganlarga o'tkaza olmaydi. Binobarin, moliya institutlari butun iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonlik bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, depozitlar – xo'jalik subektlari va xususiy shaxslarning pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlarini talab qilinishi bilan oq shartnoma asosida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'langan yohud bunday to'lovlarisiz hammasini qaytarib berish sharti bilan saqlash uchun bankka qo'yiladigan omonatlardir. Depozitlar banklarning kredit berish, faktoring operatsiyalari o'tkazish, investitsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan ssuda fondini tashkil qilish manbayi hisoblanadi (Абдуллаев ва бошқа., 2010).

Zinovevaning (2016) fikriga ko'ra, jamg'arma omonatlari uzoq muddatli mazmunga ega bo'lib, uzoq muddatli aktivlarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, ular quyidagi kamchiliklarga ega:

- ushbu omonatlar turli omillarning (siyosiy, iqtisodiy, psixologik) ta'sirlariga beriluvchandir;

- mazkur omonatlar bo'yicha foiz to'lovlarini oshirib borish zaruriyatining mavjudligi;

- bankning ushbu resurslarni doimiy asosda qayta tiklash imkoniyatining mavjud emasligi.

Haqiqatdan ham, muddatli omonatlar jismoniy shaxslarning muddatli depozitlariga nisbatan bankda uzoqroq muddat saqlanadi. Lekin, muddatli omonatlar uzoq muddatli resurs bo'lganligi sababli, ularga to'lanadigan foizlarning stavkalarini oshish ehtimoli doimo yuqori bo'ladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining depozit bazasiga tashqi omillarning ta'siri kuchlidir. Masalan, inflyatsiya darajasi va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati tijorat banklarining depozit bazasi barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Xususan, inflyatsiya darajasi va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori bo'lishi yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari va omonatlarining real qiymatini va ulardan olingan foizli daromadlarning real qiymati pasayishiga olib keladi.

Fikrimizcha, tijorat banklarining depozit bazasini barqarorligini ta'minlashni O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Markaziy bankining moliyaviy qo'llab-quvvatlashisiz amalga oshirish qiyin. Ushbu moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi tadbirlarni ko'zda tutishi lozim:


- inflyatsiyaning past va barqaror darajasini ta'minlash;
- milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atini pasaytirish;
- aholi daromadlarini uzluksiz oshirib borish siyosatini davom ettirish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning sof foydasi darajasini oshirish masadida tannarxning mahsulotlarni sotishdan olingan tushum hajmidagi salmog'ini pasaytirish;
- monetar siyosatning tijorat banklarning depozit bazasi barqarorligini ta'minlashdagi rolini oshirish.

Depozit bazaning barqarorligini tijorat banklari kreditlarining samaradorligini ta'minlashdagi roli quyidagi namoyon bo'ladi:

- kreditlarning muddatlarini muddatli depozitlarning muddatlariga mos kelishi;
- depozitlar miqdorini kreditlarga bo'lgan talabni qondirish darajasida bo'lishi;
- kreditlarning foiz stavkalari bilan depozitlarning foiz stavkalari o'rtasida mutanosiblikning mavjudligi.

Kreditlarning muddatlarini depozitlarning muddatlaridan katta bo'lishi bankda transformatsiya riskini chuqurlashishiga olib keladi. Bu esa, bank kredit operatsiyalarining samaradorligiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.


Kreditlarga bo'lgan talabni qondirish birinchi navbatda tijorat banklari depozitlarining yetarli darajada bo'lishini taqozo etadi. Agar bankning depozit bazasi yetarli bo'lmasa, u holda, kreditlarga bo'lgan talabni qondirishning amalda iloji bo'lmaydi. Shu sababli, tijorat banklari depozit bazaning yetarliligini ta'minlash masalasiga kreditlarga bo'lgan talabni qondirishning birlamchi sharti sifatida qarashlari lozim.



1-rasm. "O'zmilliybank" AJ ning depozitlari va kreditlarining oldingi yilga nisbatan o'zgarishi (foizda)

Manba: "O'zmilliybank" AJning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki "O'zmilliybank" AJ da depozit bazasining o'sish tendensiyasining nobarqarorligi ko'rishimiz mumkin. Kreditlar hajmining o'sishida ham nobarqarorlik kuzatiladi. Bundan tashqari depozit va kreditlarning o'sish tendensiyasida mutanosiblikning ta'minlanmaganligini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. "O'zmilliybank" AJ ning jami depozitlari va brutto kreditlarining hajmi (mlrd so'mda)


Manba: "O'zmilliybank" AJning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki "O'zmilliybank" AJ da kreditlarning barqaror o'sish tendensiyasida bo'lsada depozitlar hajmining kamligi va mutanosiblikning ta'minlanmaganligini ko'rishimiz mumkin

Tijorat banklari kreditlash amaliyotining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri – bu kreditlardan olinadigan daromadlarning barqarorligi hisoblanadi. O'z navbatida, kreditlardan olinadigan daromadlarning barqarorligi kreditlarning foiz stavkalari bilan depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikka bog'liq.

Xalqaro bank amaliyotida kreditlar va depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash kreditlash amaliyotining samaradorligini tavsiflovchi muhim tadbirlardan biri hisoblanadi.

Kreditlardan olingan foizli daromadlarning Brutto kreditlarga nisbati bu-kreditlarning o'rtacha foiz stavkasini va muddatli depozitlarga qilingan xarajatlarning jami muddatli depozitlarga nisbati bu-muddatli depozitlarning o'rtacha foiz stavkasi bildiradi.



1-rasm. "O'zmilliybank" AJ da kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi va muddatli depozitlarning o'rtacha foiz stavkasi dinamikasi

Manba: "O'zmilliybank" AJning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki "O'zmilliybank" AJ da kreditlarning foiz stavkalari bilan depozitlarning foiz stavkalari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanmagan.

Tijorat banklari resurslarining yetarliligini baholashda asosiy e'tibor depozitlarning yetarliligiga va kapitalning yetarliligiga qaratiladi.

Tijorat banklari kredit xizmatlari bank ishining o'zagi hisoblanadi. Kreditning sifati kreditlash jarayonini boshqarishga bog'lik bo'lib quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- mukammal ishlab chikilgan kredit siyosati;
- kredit portfelini optimal boshqarishi;
- kreditlarni portfelini muntazam nazorat kilishning tashkil kilinganligi;
- tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlar xajmida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'zgarishi.

Muammoli kredit (NPL) —qarzdor (kredit oluvchi) 90 kun yoki undan ko'proq vaqt davomida kerakli to'lovlarni amalga oshira olmasa yoki umidsiz, shubxali va qonirsiz tasnifiga kirgan kreditlar hisoblanadi. NPLlar banklar va moliyaviy tashkilotlar uchun jiddiy muammo bo'lib, ular katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi va moliya tizimining umumiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-jadval

"O'zmilliybank" AJ ning kreditlari va unda muammoli kreditlari (NPL) salmog'i to'g'risida, mlrd. so'mda

Yillar	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
2025 yil	108 014	3 275	3,00%
2024 yil	99 423	3 098	3,10%
2023 yil	89 410	2 638	3,00%
2022 yil	74 033	3 305	4,50%
2021 yil	65 598	1 862	2,80%

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki "O'zmilliybank" AJ da muammoli kreditlarning me'yori pasayish tendensiyasiga ega bo'lib ijobiy xolat hisoblanadi. "O'zmilliybank" AJ da **Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi** xalqaro bank amaliyotida umum e'tirof etilgan me'yoriy talabi (3%) darajasigacha pasayib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat ijobiy hisoblansada, muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi nobarqaror tendensiya saqlanib qolgan.

Tahlilimiz davomida tijorat banklarida resurs bazasini yetarliligini ta'minlash, dapoziqlarning foiz stavkalari va kreditlarning foiz stavkalari o'rtasidani mutanosiblikni ta'minlash, bank depozitlari va kreditlar hajmini mutanosib ravishda barqaror o'sishini ta'minlashdagi yuqorida qayd etilgan mavjud muammolar aniqlandi

Xulosa va takliflar.

Fikrimizcha, tijorat banklari ssuda operatsiyalarining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarni hal qilish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Tijorat banklari depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish, depozitlar va riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash va sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga erishish yo'li bilan depozit siyosatini takomillashtirish uchun, birinchidan, jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ini oshirish hisobidan banklarning depozit bazasining diversifikatsiya darajasini oshirish kerak; ikkinchidan, transaksion depozitlar bilan muddatsiz kassali aktivlar o'rtasidagi, muddatli depozitlar bilan yuqori riskli aktivlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan depozitlarning riskli aktivlarga transformatsiyasini takomillashtirish zarur; uchinchidan, sof foizli spred ko'rsatkichining me'yoriy darajasiga

erishish uchun, depozitlarning yetarliligini ta'minlagan holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan muddatli depozitlar va banklararo kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

2. Tijorat banklarining emission operatsiyalarini rivojlantirish asosida barqaror depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog'ining umume'tirof etilgan me'yoriy darajasini ta'minlash uchun, birinchidan, depozit va jamg'arma sertifikatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash kerak; ikkinchidan, barqaror depozitlarning o'sish sur'ati bilan brutto depozitlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim.

3. Tijorat banklari kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, innovatsion kredit mahsulotlarini banklarning kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar miqdorini ko'paytirish zarur.

4. Banklar faoliyatidagi kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish yo'li bilan muammoli kreditlarning brutto kreditlarga nisbatan umume'tirof etilgan me'yoriy darajasini ($NPL_{max} = 3,0\%$) ta'minlash uchun, birinchidan, investitsion kreditlarning risk darajasini baholashda bazel qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan standartlashgan yondashuvdan foydalanish kerak; ikkinchidan, kredit riskini darajasini oshirishga xizmat qiluvchi risklarning (valyuta riski va likvidlilik riski) risklarning kredit riskiga ta'siri darajasini baholash aniqligini oshirish lozim; uchinchidan, muammoli kreditlar va brutto kreditlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblikni ta'minlash zarur.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mukinki bank aktivlari foizlilik darajasi, muddatlari, miqdor, o'sish tensiyasi buyicha passivlari tarkibiga mutanosiblikni saqlash lozim. Banklar bu orqali passiv va aktivlarga nisbatan transformatsiya riskini minimallashtirishga xarakat qiladi va natijada bankning samarali faoliyat yuritilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Абдуллаев Ё., Қоралиев Т., Тошмуродов Ш., Абдуллаева С. (2010) Банк иши. Ўқув қўлланма –Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, - 208 бет.

Зиновьева Н.М. (2016) Виды банковских депозитов и их особенности // Территория науки. – Ярославль, – №5. – С. 133-137.

Мишкин Ф.С. (2006) Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков, 7-е издание: Пер. с англ. –М.: ООО "И.Д. Вильямс", С-42

Синки Д. (2007) Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. –М.: Альпина Бизнес Букс, - 1018 с